



Axoli daromadlarini oshirish orqali kamba'g'allik darajasini qisqartirish yo'nalishlari.

Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li
Mustaqil tadqiqotchi
arslonbek1301@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada aholi daromadlarini oshirish orqali kambag'allik darajasini qisqartirishning nazariy-amaliy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda aholining daromadlari tarkibi, shakllanish manbalari hamda kambag'allikni kamaytirishda daromadlar o'sishining o'rnini tahlil qilindi. Jahon tajribasi asosida kambag'allikni qisqartirishda bandlikni kengaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, inson kapitaliga investitsiyalarni kuchaytirish hamda ijtimoiy transferlarning manzilliligini ta'minlashning ahamiyati asoslab berildi. O'zbekiston sharoitida aholining birlamchi daromadlari va transfertlardan olinadigan daromadlar ulushi tahlil qilinib, hududlar kesimida daromad manbalaridagi farqlar mavjudligi ko'rsatib berildi. Natijalarga ko'ra, kambag'allikni barqaror kamaytirish uchun iqtisodiy faollikni oshirish, rasmiy bandlikni rag'batlantirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini "faollashtiruvchi" yondashuv asosida takomillashtirish zarurligi xulosa qilindi.

Kalit so'zlar: Aholi daromadlari, kambag'allik, daromadlarni oshirish, bandlik, mehnat daromadlari, ijtimoiy transferlar, inson kapitali, tadbirkorlik, daromad manbalari, manzilli ijtimoiy himoya, hududiy tafovut, iqtisodiy faollik.

Kirish

Bugungi kunda kambag'allikni qisqartirish global miqyosdagi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining qariyb 700 milliondan ortig'i kuniga 2,15 AQSh dollaridan kam daromad bilan yashaydi, bu esa kambag'allik muammosining hanuz dolzarb ekanini ko'rsatadi [1]. So'nggi yillarda global iqtisodiy beqarorlik, pandemiya oqibatlari, inflyatsiya va mehnat bozoridagi nomutanosibliklar aholi daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'allik darajasining oshishiga olib keldi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) tadqiqotlariga ko'ra, barqaror bandlik va munosib ish haqi darajasining yetarli bo'lmashligi kambag'allikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda kambag'allikni qisqartirishning eng samarali va uzoq muddatli yo'li sifatida aholi daromadlarini oshirish alohida ta'kidlanadi. A. Senning imkoniyatlar yondashuvi hamda Jahon bankining inklyuziv o'sish konsepsiyasiga ko'ra, daromadlarning oshishi nafaqat iste'mol darajasini yaxshilaydi, balki ta'lim, sog'liqni saqlash va inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish orqali kambag'allikning avloddan-avlodga o'tishini cheklaydi [2]. Tadqiqotlar shuni

ko'rsatadiki, mehnat unumdorligi o'sishi, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, shuningdek, kasbiy ko'nikmalarni oshirish aholi daromadlarining barqaror manbalarini shakllantiradi [3].

Mazkur masala O'zbekiston uchun ham alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatda so'nggi yillarda kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan bo'lib, aholi daromadlarini oshirish, bandlikni ta'minlash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, hududlar kesimida daromadlar tafovuti, norasmiy bandlik ulushining yuqoriligi va past daromadli qatlamlarning iqtisodiy faolligi cheklangani kambag'allik muammosini saqlab qolmoqda. Shunday sharoitda aholi daromadlarini oshirish orqali kambag'allik darajasini qisqartirishning asosiy yo'nalishlarini ilmiy jihatdan asoslash va amaliy takliflar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega [4].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

So'nggi yillarda kambag'allikni qisqartirish masalasi jahon iqtisodiy adabiyotlarida aholi daromadlarining barqaror o'sishi bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda kambag'allik faqat daromad yetishmasligi emas, balki mehnat bozoriga cheklangan kirish, past mehnat unumdorligi va iqtisodiy imkoniyatlarning teng taqsimlanmaganligi bilan izohlanadi. World Bank va UNDP tadqiqotlariga ko'ra, daromadlarning oshishi kambag'allikni qisqartirishning eng samarali va uzoq muddatli mexanizmi hisoblanadi, chunki u aholining o'z-o'zini ta'minlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ravallion o'z tadqiqotlarida iqtisodiy o'sish va kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlikni empirik tahlil qilib, o'sishning sifati muhim ekanini asoslaydi. Uning xulosalariga ko'ra, agar iqtisodiy o'sish past daromadli qatlamlar bandligini oshirmasa va real ish haqlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmasa, kambag'allik darajasi sezilarli darajada kamaymaydi. Shu nuqtayi nazardan, mehnat daromadlari kambag'allikni qisqartirishda markaziy rol o'ynaydi [5].

ILO hisobotlarida ish haqi dinamikasi va mehnat unumdorligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik alohida ta'kidlanadi. Tadqiqotlarga ko'ra, real ish haqlarining pasayishi yoki sekin o'sishi kambag'allik xavfini oshiradi, ayniqsa norasmiy bandlik yuqori bo'lgan mamlakatlarda. Shu bois, munosib mehnat sharoitlarini yaratish va ish haqlarini oshirish kambag'allikka qarshi siyosatning muhim yo'nalishi sifatida qaraladi [6].

OECD va Dollar, Kraay tadqiqotlarida daromadlar tengsizligi va kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilib, iqtisodiy o'sishdan olinadigan foydaning adolatli taqsimlanishi kambag'allikni qisqartirish samaradorligini oshirishi isbotlangan. Mualliflar inklyuziv o'sish modelini ilgari surib, ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali daromadlarning keng qatlamlar uchun oshishini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi [7].

UNDP tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda inson kapitaliga investitsiyalar aholi daromadlarini oshirishning strategik omili sifatida baholanadi. Ta'lim darajasi va kasbiy ko'nikmalar oshishi mehnat bozorida yuqori daromadli bandlikka kirish imkonini kengaytirib, kambag'allikning avloddan-avlodga o'tishini cheklaydi. Shuningdek, raqamli ko'nikmalar va yangi texnologiyalarga moslashuv daromadlar o'sishining yangi manbalari sifatida ko'rilmogda [8].

O'zbekiston iqtisodiy adabiyotlarida kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish masalasi asosan hududiy rivojlanish, bandlik va tadbirkorlik omillari bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Jumaniyozov A. va Qodirov A. tadqiqotlarida aholi daromadlarining past darajada shakllanishi hududlarda iqtisodiy faollik va ishlab chiqarishning yetarli rivojlanmagani bilan izohlanadi hamda kichik biznesni rivojlantirish orqali daromadlarni oshirish zarurligi asoslab beriladi [9].

Abdurahmonov Q.X. va Ismoilov B.A. mehnat bozori va bandlik masalalarini tahlil qilib, rasmiy bandlikning kengayishi va mehnat unumdorligining oshishi aholi daromadlarini ko'paytirish orqali kambag'allikni qisqartirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Mualliflar norasmiy bandlik yuqori bo'lgan sharoitda kambag'allik darajasi barqaror kamaymasligini ilmiy asoslaydi [10]. Tursunov B.O. va Yusupov S.S. tadqiqotlarida qishloq joylarda aholi daromadlarini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymat yaratish, qayta ishlash va kooperatsiya mexanizmlarini rivojlantirish kambag'allikni qisqartirishning muhim yo'nalishlari sifatida ko'rsatiladi. Ularning fikricha, faqat xomashyo ishlab chiqarishga tayanish qishloq aholisi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlay olmaydi [11]. Shuningdek, O'zbekiston olimlari orasida Mirzayev B.H. va Rasulov D.X. [12] ijtimoiy himoya va manzilli yordam masalalarini tadqiq qilib, ijtimoiy transferlar kambag'allikni vaqtincha yumshatishi mumkinligini, biroq barqaror natijaga erishish uchun ularni bandlik va tadbirkorlik bilan integratsiyalash zarurligini ta'kidlaydilar. Ular "ijtimoiy shartnoma" mexanizmini aholi daromadlarini oshirishga yo'naltirilgan samarali instrument sifatida baholaydilar. Inson kapitali va ta'limning aholi daromadlariga ta'siri masalasi Shermuhamedov A.A. va Karimov I.I. tadqiqotlarida yoritilgan bo'lib, mualliflar kasb-hunar ta'limini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish orqali yuqori daromadli bandlikni shakllantirish mumkinligini asoslab beradilar [13, 14].

Umuman olganda, O'zbekiston olimlarining ilmiy tadqiqotlari aholi daromadlarini oshirish kambag'allikni qisqartirishning asosiy sharti ekanini tasdiqlaydi. Biroq mavjud tadqiqotlarda daromadlarni oshirish yo'nalishlarini hududiy xususiyatlar asosida kompleks baholash va ularning kambag'allik darajasiga ta'sirini empirik usullar yordamida chuqur tahlil qilish yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur maqola ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot ishida mamlakat axoli daromadlarini oshirish orqali kambag'allik darajasini qisqartirish yo'nalishlari tadqiq qilindi. Shu bois tadqiqotda nazariy tahlil, taqqoslash, empirik va sifat kontent tahlili kabi metodologik yondashuvlar va uslublardan foydalanildi.


Tahlil va natijalar

Aholining umumiy daromadlari – doimiy yoki takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda, uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan pul va natura shaklidagi tushumlardan tashkil topadi. Aholi farovonligini ifodalashda jami aholining, oilalarning, alohida shaxslarning umumiy daromadlari muhim ahamiyatga ega. Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2024 yilning yanvar-dekabr holatiga ko'ra, aholining umumiy daromadlari 896,3 trln so'mni tashkil etdi. Aholi daromadlari bo'yicha real o'sish sur'atlarini hisoblashda narx

omillari ta'sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyatsiya ko'rsatkichlarining asosiy turlaridan biri – iste'mol narxlari indeksi (INI)dan foydalaniladi. Iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati 108,1 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2024 yilning yanvar-dekabr holatiga ko'ra, aholi jon boshiga umumiy daromadlar 24,1 mln so'mni, aholi jon boshiga umumiy

daromadlarning nominal o'sish sur'ati 116,1 % ni tashkil etdi. Iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'ati 105,9 % ni tashkil etdi. 2020 yilning yanvar-dekabr holatiga ko'ra, aholi jon boshiga umumiy daromadlar 12,6 mln so'mni tashkil etgan, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich deyarli ikki baravar ko'paydi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga umumiy daromadlar


2020-2024 yillarning yanvar-dekabr oylarida (ming so'm)¹.

Aholi daromadlari iqtisodiyotning asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanib, ular aholining turmush darajasi, iste'mol imkoniyatlari, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va qashshoqlik darajasini aks ettiradi. O'zbekistonda aholining umumiy daromadlari Milliy statistika qo'mitasi tomonidan xalqaro standartlar (jumladan, BMT va Xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyalari) asosida hisoblanadi va ikki asosiy guruhga bo'linadi: birlamchi daromadlar (ishlab chiqarish jarayonida to'g'ridan-to'g'ri hosil bo'ladigan) va transfertlardan olingan daromadlar (davlat, xorijiy manbalar yoki boshqa subyektlar tomonidan qayta taqsimlash yo'li bilan beriladigan mablag'lar). Bu tasnif aholi daromadlarining manbalarini batafsil o'rganish, davlat byudjeti siyosatini shakllantirish va ijtimoiy dasturlarni rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda O'zbekistonda aholi daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (ish haqi, tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi mahsulotlari) umumiy hajmning taxminan 59–62% ni tashkil etib kelmoqda, transfertlardan olingan daromadlar esa 26–30% atrofida bo'lib, ularda pensiya, nafaqa, stipendiya va xorijdan

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

keladigan pul o'tkazmalari yetakchi o'rin tutadi. Masalan, 2024–2025 yillarda ish haqi daromadlari o'sishi bandlik darajasining ko'tarilishi bilan bog'liq bo'lsa, transfertlardagi o'sish ijtimoiy himoya tizimining kengayishi va xorijiy o'tkazmalar saqlanib qolishi bilan izohlanadi. Quyidagi sxema (diagramma) aholining umumiy daromadlarini ierarxik tarzda batafsil tasniflab beradi va har bir bo'limning mazmunini ochib beradi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi aholi daromadlari tarkibi²


Ushbu tasnif yordamida daromadlarning har bir manbai alohida tahlil qilinadi: masalan, mehnat faoliyatidan olingan daromadlar ichida yollanma ishchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo'lganlarning daromadlari ajratiladi, mol-mulkdan olingan daromadlar (ijara, foizlar, dividendlar) esa ko'pincha shahar aholisida yuqori ulushga ega. Transfertlar bo'limida ijtimoiy to'lovlar (pensiya va nafaqalar) davlat siyosatining muhim yo'nalishi bo'lib, boshqa joriy transfertlarda xorijiy pul o'tkazmalari muhim rol o'ynaydi. Bu tuzilma asosida davlat ijtimoiy siyosatni takomillashtirish, bandlikni rag'batlantirish va daromadlar tengsizligini kamaytirish bo'yicha choralar ko'radi.

Aholi daromadlari tarkibining tahlili O'zbekiston iqtisodiyotida aholining turmush darajasi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni baholashning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. 2024-yil yanvar-dekabr oylarida aholining umumiy daromadlari 896,3 trillion so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sish kuzatildi. Quyidagi doira diagrammasi 2024-yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra

² Muallif ishlanmasi

aholining umumiy daromadlari tarkibini foizlarda batafsil ko'rsatadi. Bu yerda birlamchi daromadlar 74,0% ni tashkil etib, ular ichida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar (35,0%), yollanma ishchilarning ish haqi (27,9%), shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlar (7,8%) va mol-mulkdan olingan daromadlar (3,3%) ajratilgan. Transfertlardan olingan daromadlar esa umumiy hajmning 26,0% ini egallagan (3-rasm).

Aholi umumiy daromadlari tarkibi
2024 yil janvar—dekabr holatiga (% da)



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi aholisining umumiy daromadlari tarkibi³

Ushbu tarkibiy tuzilma O'zbekiston aholisining daromad manbalarida mehnat faoliyatining ustunligini (ayniqsa, mustaqil bandlik va tadbirkorlikning yuqori ulushi) tasdiqlaydi, bu qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasidagi o'sish bilan izohlanadi. Transfertlar ulushining 26% ga yaqinligi ijtimoiy himoya (pensiya, nafaqa, yordamlar) va xorijiy pul o'tkazmalarining muhimligini ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlar asosida (Statistika agentligi va boshqa manbalar) bu ko'rsatkichlar davlat siyosatida bandlikni rag'batlantirish, daromadlar tengsizligini kamaytirish va ijtimoiy to'lovlarni optimallashtirish yo'nalishlarini belgilashda asosiy yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi.

Hududlarning aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlarining (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) eng yuqori ulushi Navoiy viloyatida (77,9 %)

kuzatildi. Aksincha, Farg'ona, Samarqand, Andijon va Xorazm viloyatlarida hamda

Toshkent shahrida o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi. Respublika bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi sezilarli darajada bo'lmasada, Toshkent shahrida bunday daromadlarning ulushi 23,9 % ni tashkil etdi. Shuningdek, transfertlardan olingan

³ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

daromadlarning ulushi Andijon, Farg'ona, Samarqand, Xorazm va Surxondaryo viloyatlarida aholi umumiy daromadlariga nisbatan 30 % dan yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan bo'lsa, Navoiy viloyatida mazkur daromad turining ulushi eng past ya'ni, 11,7 % ni tashkil etdi.

Xulosa va takliflar

Mazkur tadqiqotda aholi daromadlarini oshirish orqali kambag'allik darajasini qisqartirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kambag'allikni barqaror kamaytirishning eng samarali omili sifatida aholining mehnat faoliyatidan olinadigan daromadlarini kengaytirish, bandlikni oshirish hamda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faolligini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon amaliyoti tajribasi daromadlarni oshirish va kambag'allikni qisqartirish o'rtasida kuchli o'zaro bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Bunda iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda, daromadlarning adolatli taqsimlanishi, inson kapitaliga investitsiyalar, malaka va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish hamda ijtimoiy himoya tizimining manzilliligi muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston sharoitida ham aholining umumiy daromadlari tarkibi tahlili shuni ko'rsatadiki, birlamchi daromadlar asosiy manba bo'lib, mehnat daromadlari va mustaqil bandlikdan tushadigan daromadlar ustuvor ahamiyatga ega. Shu bilan birga, transfertlardan olinadigan daromadlar ham ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Hududlar kesimida daromadlar manbalari va ulushlarida sezilarli farqlar mavjud bo'lib, ayrim viloyatlarda transfertlarga qaramlik yuqoriligi kuzatiladi. Bu holat hududiy bandlik siyosatini kuchaytirish, ishlab chiqarish va xizmatlar sektorini kengaytirish hamda daromad manbalarini diversifikatsiya qilish zarurligini anglatadi. Umuman olganda, aholining daromadlarini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirish masalasi kompleks yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayonda bandlikni ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy siyosatning manzilliligini kuchaytirish hamda hududiy tafovutlarni kamaytirish ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

Aholi daromadlarini barqaror oshirish va kambag'allik darajasini qisqartirish maqsadida mehnat bozorida samarali bandlikni kengaytirish, munosib ish o'rinlarini yaratish hamda ish haqi o'sishini mehnat unumdorligi bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni kuchaytirish lozim. Ayniqsa, hududlarda iqtisodiy faollikni oshiruvchi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholining doimiy daromad manbalarini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Norasmiy bandlik ulushining yuqoriligi aholi daromadlarining barqarorligini cheklab qo'yayotgan omillardan biri bo'lgani bois, uni qisqartirish va rasmiylashtirishni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kengaytirish zarur. Bunda soddalashtirilgan tartiblar va rag'batlantiruvchi fiskal instrumentlar orqali fuqarolarni rasmiy bandlikka o'tkazish hamda ularni ijtimoiy himoya tizimiga to'liq jalb qilish imkoniyatlari oshiriladi.

Aholining mustaqil bandlikdan daromad olish salohiyati yuqori ekanini inobatga olib, kichik tadbirkorlik va oilaviy biznesni qo'llab-quvvatlashning institutsional asoslarini mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Bu yo'nalishda mikromoliyalashtirish, startup grantlari, imtiyozli kreditlash tizimlarini hududiy

ehtiyojlar asosida kengaytirish hamda mahalliy resurslarga tayanadigan ishlab chiqarish kooperatsiyalarini rivojlantirish daromadlarning oshishiga xizmat qiladi.

Qishloq hududlarida daromad manbalarini kengaytirish uchun qo‘shilgan qiymat yaratish zanjirini rivojlantirish, ya’ni qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va logistika tizimlarini modernizatsiya qilish zarur. Natijada xomashyo eksportiga bog‘liqlik kamayib, mahalliy ishlab chiqarish kengayadi hamda qishloq aholisi daromadlarining barqarorligi ta’minlanadi.

Inson kapitali daromadlarni oshirish va kambag‘allikni qisqartirishning fundamental omili ekanini e’tiborga olib, kasb-hunar ta’limi va qayta tayyorlash tizimining mehnat bozori talablariga mosligini kuchaytirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar va ayollar bandligini oshirish maqsadida raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish, qisqa muddatli kasbiy tayyorlov kurslarini kengaytirish va zamonaviy xizmatlar sektoriga integratsiyani kuchaytirish dolzarbdir.

Ijtimoiy transferlar tizimining manzilliligini saqlagan holda, uni faqat iste’molni qo‘llab-quvvatlash bilan cheklamasdan, fuqarolarni bandlikka qayta olib chiqishga xizmat qiladigan “faollashtiruvchi mexanizm” sifatida takomillashtirish tavsiya etiladi. Bunda ijtimoiy yordam oluvchilarni kasbga yo‘naltirish, kasbiy tayyorlash va kichik biznesni boshlash imkoniyatlari bilan bog‘lash orqali transferlarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. World Bank. (2023). *Poverty and shared prosperity 2023: Correcting course*. World Bank Publications.
2. Sen, A. (1999). *Development as freedom*. Oxford University Press.
3. World Bank. (2024). *Global economic prospects*. World Bank Publications.
4. World Bank. (2023). *Uzbekistan: Poverty assessment*. World Bank Group.
5. Ravallion, M. (2020). Poverty in the richer world. *Journal of Economic Inequality*, 18(1), 1–16.
6. International Labour Organization. (2023). *Global wage report 2022–23*. Geneva: ILO.
7. Dollar, D., & Kraay, A. (2021). Growth is good for the poor revisited. *World Bank Research Observer*, 36(2), 195–224.
8. ErgashIbadullaev, Alibek Rajabov, Dilfuza Matyakubova, Azizbek Yakubov and Inomjon Yusubov. Empirical analysis of renewable and non-renewable energy resources consumption impact on economic development in Uzbekistan. *BIO Web of Conferences* 82, 050 (2024) MSNBAS2023. <https://doi.org/10.1051/bioconf/20248205002>.
9. Ukdamboev Diyorbek, Ibadullaev Ergash. (2025). The impact of currency policy reforms on capital accumulation. *Finance, Money and Credit*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17955354>.
10. Abdurahmonov, Q. X., & Ismoilov, B. A. (2020). Mehnat bozori va bandlikni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 5, 45–54.

11. Tursunov, B. O., & Yusupov, S. S. (2022). Qishloq joylarda daromadlarni oshirishning institutsional mexanizmlari. *Agroiqtisodiyot*, 2, 21–29.
12. Mirzayev, B. H. (2021). Ijtimoiy himoya tizimi va kambag'allikni qisqartirish masalalari. *Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar*, 4, 58–65.
13. Shermuhamedov, A. A. (2023). Inson kapitalini rivojlantirish va daromadlar o'sishi. *Ta'lim iqtisodiyoti*, 1, 15–24.
14. Karimov, I. I. (2022). Kasbiy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi. *Oliy ta'lim muammolari*, 2, 37–45.